

**O'ZBEKISTONDAGI QO'RIQXONALAR**

Atamurodova Dilbar Kattayevna

Surxondaryo viloyati Termiz shahar

12-umumiy o'rta ta'lim maktabi boshlang'ich sinf o'qituvchisi

Qo'riqxonalar –belgilangan qonunlarga muvofiq, davlat tomonidan ajratilgan, alohida ilmiy yoki madaniy ahamiyatga ega bo'lgan, o'simliklar va hayvonlar dunyosi, foydali qazilmalar tabiiy obyekti joylashgan yer, yoki suv kengliklari, madaniy-ma'rifiy maqsadlar uchun uzoq muddatda ajratilgan va to'raligicha ho'jalik ishlaridan holi tabiiy majmua.

O'zbekistonda qo'riqxonalarni tashkil qilish, faoliyati, ta'minoti va muxofazasi O'zbekiston Respublikasining 2004-yil 30 dekabrda "Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar to'ralig'ida"gi qonun bilan tartibga solindi. O'zbekistonda 9 ta qo'riqxonalar bor: Baday to'ray davlat qo'riqxonasi, Hisor qo'riqxonasi, Surxon davlat qo'riqxonasi, Zomin tog' -o'rmon qo'riqxonasi, Kitob davlat geologiya qo'riqxonasi, Zarafshon to'ray qo'riqxonasi, Qizilqum to'ray

qo'riqxonasi, Chotqol to'ralig' -o'rmon qo'riqxonasi, Nurota tog' -yong'oqzor qo'riqxonasi.

**O'ZBEKISTON QO'RIQXONALARI.** O'zbekistonda alohida muhofaza

qilinadigan hududlarning to'rtta asosiy toifalari mavjud:

1. Davlat qo'riqxonalari.
2. Davlat milliy bog'lari.
3. Davlat buyurtmaxonalari.
4. Davlat tabiat obidalari.

Qo'riqlanadigan hududlarning umumiy maydoni 20520 kv.km yoki bu barcha Respublika hududining 4,6 % ni tashkil etadi. Ammo faqat 8225 kv.km. yoki Respublikadagi maydonlarning 1,8 % uzoq muddatli yoki jiddiy muhofaza qilinadigan hududlarga ajratilgan.

Tabiatni muhofaza qilish Xalqaro Ittifoqining 1-toifasiga kiradigan qo'riqxonalarda har qanday xo'jalik faoliyati taqiqlanadi. 2 - toifaga kiradigan Milliy bog'larda yerlardan qishloq xo'jalik, rekreasiya, turizm maqsadlarida foydalaniladi.

1.Baday to'ray qo'riqxonasi Amudaryo sohillarida joylashgan bo'lib asosiy vazifasi Amudaryo sohillaridagi o'simlik va hayvonot dunyosini ko'riqlah. 1971 yilda tashkil topgan maydoni 6462 ga, shundan 3975ga to'ray o'rmonlari tashkil etadi. Qo'riqxonada 167 tur o'simlik, 138 tur qushlar, 20 turdan ko'proq sut emizuvchilari, suv jonvorlari yashaydi. 60 tordagi jonivorlar O'zbekiston Qizil kitibiga kiritilgan. 1994 yil davlat qo'riqxonasi maqomi berilgan.

2.Hisor davlat qo'riqxonasi Qashqadaryo viloyatining Hisor tog' tizmalarida 1983 yilda tashkil etilgan maydoni 80986,1 ga shundan 12202 o'rmonlar, 2745ga o'tloqlar, 171ga suv havzalari. Qo'riqxonada yashaydigan 870ta jonivor O'zbekiston Qizil kitibiga kiritilgan. Tabiiy landshavt majmualarini va Hisor tog' tizmasi ekologiyasini saqlash maqsadida tashkil etilgan.

3. Surxon davlat qo`riqxonasi Surxondaroyon viloyatini Sherobot tog` tizmasida joylashgan 2 mustaqil maydonga ega Qo`xitlang tog`i va Payg`anbar orollaridan iborat. 1971 yilda tashkil topgan. Maqsadi qo`riqxonada hududidagi o`simliklar va hayvonot dunoyosini qo`riqlar, ilmiy tajribaviy ishlar olib borishdan iborat. 29 tur o`simliklari O`zbekistonning Qizil qitobiga kiritilgan.

4. Zomin tog` archa qo`riqxonasi Jizzax viloyatida joylashgan maqsadi archalarni o`rganish va ko`paytirish noyob hayvonlar va o`simliklarni saqlab qolish. 1926 yilda tashkil topgan. Maydoni 15,5 ming ga tashkil etadi.



5. Kitob davlat qo`riqxonasi Qashqadaryo viloyati Kitop tumanida joylashgan. 1979 yilda tashkil topgan. Maydoni 5378ga. Yerning geologik tarixiga oid tabiiy-ilmiy yodgorliklar bo`lmish paleontologik-stratigrafik obektlarni reja asosida o`rganish va muhofaza qilish.



6. Chotqol O`zbekistonda yagona biosfera qo`riqxonasi hisoblanadi, u Toshkent yaqinidagi tog`larda joylashgan. Bu yerning o`simlik va hayvonot dunyosi boy va turli-tuman. Bu yerda 500 yoshga kirgan daraxtlar ko`p, hatto 1000 yoshli daraxtlar ham bor.

O`zbekistonning qo`riqxonalarida buxoro bu`gisi, jayron, sayg`oq, kulrang echkiemar, kapcha ilon, qo`ng`ir ayiq, to`ng`iz, korolyok, qoplun, ko`k sigir, qizil bo`ri, turkiston silovsini, jayra

hayvonlar, oqboosh sip, qora tasqari, qora qalxat, burgut singari qushlar, qora baliq, turiston laqqasi baliqlar muhofaza qilinadi.



Qo`riqxonalarda turli ilmiy ishlar olib boriladi. Olimlar tabiat qonunlarini, o`simliklar bilan hayvonlarning hayotini o`rganadilar. O`simliklar va hayvonlarni ko`patirush uchun eng yaxshi sharoitlar yaratadilar. Hayvonlar ancha ko`payib qolgan joylardan ular bemalol yashay oladigan joylarga ko`chirishadi. Olimlar qadam yetmaydigan joylarda vertalyotlar yordamida kuzatishadi. Vertalyotlar yordamida oziq solingan qoplar hayvonlarga tashlanadi. Kasal hayvonlar qo`riqxonalarda davolanadi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:**

1. Safarova R.G., Abdullayeva B.S . Boshlang'ich ta'lim konsepsiyasi.- Toshkent, 2019.
2. O'zbekiston Respublikasining Ta'lim to'g'risidagi Qonuni. (1997- yil 29-avgustda qabul qilingan).